

# TALABALARING O'QUV-BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEKNOLOGIYASINING AHAMIYATI

*Boboqulova Marjona Abduvali qizi,*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-bosqich  
magistranti*

*<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.013>*

*Annotatsiya: Maqolada bugungi zamонавиј та'lim sharotida muammoli ta'lim texnologiyalarining ahamiyatli jihatlari va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishda, tahliliy va mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalarining o'rni haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, tahliliy fikrlash, bilim, Oliy ta'lim, faollik, talaba, bilish faoliyati, tafakkur, ijodiy fikrlash, salohiyat*

## THE IMPORTANCE OF PROBLEM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN ACTIVATING STUDENTS' LEARNING ACTIVITY

*Abstract: The article talks about the important aspects of problem-based learning technologies in today's modern educational conditions and the role of problem-based learning technologies in activating students' learning and developing analytical, independent and creative thinking.*

*Key words: problem-based education, analytical thinking, knowledge, higher education, activity, student, cognitive activity, thinking, creative thinking, potential.*

## ЗНАЧЕНИЕ ПРОБЛЕМНОЙ УЧЕБНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В АКТИВИЗАЦИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

*Аннотация: В статье говорится о важных аспектах технологий проблемного обучения в современных образовательных условиях и о роли технологий проблемного обучения в активизации обучения учащихся и развитии аналитического, самостоятельного и творческого мышления.*

*Ключевые слова: проблемное образование, аналитическое мышление, знания, высшее образование, деятельность, студент, познавательная деятельность, мышление, творческое мышление, потенциал.*

**KIRISH.** So'nggi o'n yilliklar ichida insoniyat jamiyatidagi o'zgarishlar pedagogikada ta'lim tizimini insonparvarlashtirish, uning kompetentlik paradigmasiga aylanishi uchun asos bo'ldi. Bir tomonidan, bugungi zamondagi yangi pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirishga maqsadli jarayonni belgilay olish, hamda atrofimizdagi butun dunyoni bilishning yuqori darajasini ta'minlay oladi. Xalqaro sivilizatsion taraqqiyot vaqtida ijtimoiy o'zgarishlarning dinamikasi shuni ko'rsatib beradi, ya'ni butun dunyoning taraqqiy etishida katta ilmiy innovatsiyalar juda muhimligini isbotlab bermoqda. Innovatsiyalarning ishlab chiqilishi albatta talabalarning bilim saviyasi, intellektual salohiyatlarining takomillashtirishga qaratilgan yangi pedagogik talablar bilan uzviy bog'liqdir.

Taniqli olim A.Verbitskiy ta'lim jarayonlarida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish bo'yicha quydagi fikrlarni ta'kidlaydi: "Talabalar tuyyan masalalarni hal etishda turli tuman darajada murakkablikga ega bo'lib bilimlarni o'zlashtirib, ularni hal etishda ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishga tayanadi. Shuning bilan birga pedagoglarning shaxsga qaratilgan ta'lim mazmuni ham shular bilan chambarchasdir".

**ASOSIY QISM.** Bugungi zamонавиј та'lim yoshlardan kuchli salohiyatli, raqobatbardosh, maxsus qobiliyatli, zamon bilan hamnafas, maqsadli, ilmiy-texnika taraqqiyot talablariga javob beradigan, mustahkam irodali bo'lishni talab etadi. Bu kabi sifatlarni amalga oshirilishda esa muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tahliliy fikrlashda, talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishda keng qo'llaniladigan va eng ko'p talab qilinadigan pedagogik texnologiyalardan biri muammoli ta'limdir. Talabalar muammoli jarayonlarni hal etishda yoki muammoli masalalarning o'ziga xosliklarini tushinishning ahamiyatli tomonini yangi bilimlarga assoslanib qaraladi. Buning nazariy va amaliy jihatlari bir qator olimlar A.Brushlinskiy, T.Kudryavsev, A.Matyushkin va boshqalar tomonidan

tadqiq qilinadi.

Muammoli ta'lism texnologiyasining umumi shuni qamrab oladiki, ya'ni talabalarning tahliliy fikrlashida tayyor bo'lgan axborot yoki ma'lumot tayyor shaklda berilmaydi, balki ular talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan muammoli shakllarda berilishi maqsadga muvofiqdir. Talabalar tahliliy fikrlashlarini shakllantirib boradilar hamda mustaqil faoliyat jarayonini olib boradilar. Bunday qidiruv faoliyati natijasida yangi bilim, qobiliyat, ko'nikmalar hosil qilinib, ular ko'proq darajada teranlik, mustahkamlik, onglilik bilan ajralib turadi.

Talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziquvchanligi, faolligi, ijodiy fikrlashi, bilimdonligi va boshqa fikrlash bilan aloqador shaxsiy zarur fazilatlari ham rivojlanadi. Hozirgi kunda pedagogika ilmida muammoli ta'lism tushunchasini tadqiq qiluvchi olimlarning qarashlarida shu ahamiyatli jihatlar ko'rsatiladi, ya'ni ta'lism jarayonida muammoli vaziyatlarga oid talabalarning mustaqil faoliyat olib borishi va yechimlarni mustaqil amalga oshirishiga doir bilimlarning yaratilishiga asos bo'ladigan ta'limi D.Konkov, M.Glebov, E.Yakovleva va boshqalar tashkil etadi deya ta'kidlaydilar. Pedagog A.M.Matyushkining fikriga ko'ra, ta'linda muammoli ta'limi o'rganish bu ta'linda o'quv vazifasini tashkil etish va bundagi muammoni shakllantirish, talabalarga ushbu ta'linda muammoni yechishda yordam berish, talabalarning egallagan bilimlarini mustahkamlash va tekshirish uchun harakatlar majmuini yaratishdir.

Talabada mustaqil fikrlashni talab qiladigan murakkab savollarni berib, tahliliy fikrlash orqali yangi bilimlarni olish g'oyasi uzoq vaqt davomida xorij didaktikasi va falsafasida ildiz otgan va Sokratning falsafiy qarashlarida, F.Akvinskiy, F.Bekon va I.Kantning fikrlari mujassamlangan asarlariga borib taqaladi. Pedagogika fanining faylasuflari o'z asarlarida, tayyor bilimlarni yodlashdan bosh tortish g'oyasini yaratadilar, ular sub'ektning bilimlarni o'rganishdagi juda ham katta miqdordagi faolligi to'g'risidagi qarashlarga zid turdilar.

Muammoli ta'limi amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog D.Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning 60 yillarida bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80 yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi. Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur- muammoli vaziyatdan boshlanadi"-degan g'oya yotadi. Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan muammoli o'qitish g'oyasi va tamoyillari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan.

Muammoli ta'lism texnologiyasining asosi – insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lism talabaning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

S.L. Rubinshteyn "tafakkur – inson oldida turgan masala va muammolarni yechishga olib keladigan idrok bolib, tafakkur muammoli vaziyatdan kelib chiqadi va muammoni yechishga qaratilgan bo'ladi"- deb ta'kidlaydi.

Muammoli ta'lism mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: o'quv fani va darslar mavzusini o'rgatishda ular bilan bog'liq muammoli masalalarni belgilash; ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish; talabaning tayyorgarlik darajasini hisobga olish; zarur o'quv vositalarini tayyorlash; muammoli vaziyatdagi mayjud ziddiyatni ko'rsatish; topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish; talabaning muammoni hal etishda yo'l qo'yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko'rsatish; talabaning noto'g'ri taxminlari asosida chiqqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to'g'ri yo'lni topishlariga ko'maklashish va boshqalar.


Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda talabaga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab – talabaning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa, talabada qiziqish hosil qiladigan bo'lishi keraklididan iborat. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishish imkon bo'lmaydi.

Muammo talabaning bilim darajalariga hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo'lishi shart. Hosil bo'lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o'zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi. Talabaning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog'liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo'ladi. Bunday tushuna olish esa talabaga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish

kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi. Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyligi, mustaqilligi, ijodiyligi, ilmiyligi, asosliligi, uzbekligi, tejamliligi, maqsadliligi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyligi, umumlashtirilganligi, xususiyashtirilganligi, kengligi, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyligi darajasi bilan belgilanadi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi (pedagog) talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari-tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi. Bu kabi vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin.

Muammoli vaziyat – o'quvchilarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi.



Muammoli vaziyat metodi – o'quvchilarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'minlash asosida ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l. Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning yechimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat. Muammo tushunchasi tuyyyan hal qilinishi zarur bo'lgan qiyinchiliklarni va noaniq vaziyatlarga yechimlarni topish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida yuzaga kelgan vaziyatlarning mazmunini chuqur tahlil qilish imkoniyatini beradi

Muyyan bir muammoni tahlil qilishda va uning mazmunini tushunishda talaba tuyyyan bir tadqiqotlarni olib borishda aqliy faoliyatlarni ishga qo'shami. Muayyan vaqt davomida hal etilmasligi va shuning uchun o'rganish jarayoniga doimiy qaytish, muammoni hal etishga qaratilgan konsentratsiya faqat tayyor bilim o'zlashtiriluvchi an'anaviy ta'lim bilan solishtirganda yanada mustahkam bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantiradi. Biroq, muammoli ta'limda ijobjiy tomonlardan tashqari, ayrim kamchiliklarni ham ta'kidlash kerak. Ulardan eng muhimi, muammoli vazifani hal qilishda, o'rganuvchining o'quv jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi, o'quv holatini yengish uchun ko'proq vaqt va kuch kerakligi, ya'ni tahlil qilish, o'ylash, hal qilish uchun an'anaviy ta'lim shakliga nisbatan ko'proq vaqt talab etilishidir.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytgandamuammoli ta'lim texnologiyasi talabalarda ijodiy izlanish,o'quv bilish faolyatlarini faollashtirish,ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan va ta'limiy-tarbiyaviy masalalarni,muammolarni yechish uchun yangi bilimlarni o'zlashtirib keyin hayotda qo'llash imkonini beruvchi ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Muammoli ta'lim masalalari ta'limning asosi bo'lgan tahliliy fikrlash vazifalarining shakllanishi, rivojlanishining o'ziga xosliklari inson aqliy hayoti bilan yaxlit ekanligini ko'rsatib o'tadi, ularning amaliy jihatlarini tadqiq etish lozimligini ta'kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- N.N. Azizzoxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y
- Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiyy asoslari. – T.: Fan, 2006